

ALISHER NAVOIYNING “ARBAIN” ASARIDA KOMIL INSON VASFI

Xodjaliyev Abdulxay Abduxodi o‘g‘li

Toshkent Davlat Sharqshunoslik Universiteti magistranti

Annotatsiya

Mazkur maqolada hadis ilmidagi muhim janr hisoblangan arba'in asarlari misolida komil inson konsepsiyasi ilmiy jihatdan tahlil qilinadi. Tadqiqotning asosiy manbasi sifatida Alisher Navoiyning “Arba'in” asari hamda unga yozilgan klassik sharhlar tanlangan. Maqolada komil insonning e'tiqodiy, axloqiy va amaliy mezonlari hadislar asosida ochib berilib, ushbu modelning shaxs tarbiyasi va jamiyat barqarorligidagi o'rni asoslab beriladi. Shuningdek, uning adolat, insonparvarlik va xalq manfaatini himoya qilishga asoslangan faoliyatining bugungi davr uchun dolzarbligi ochib beriladi. Maqola tasavvuf va jamiyat munosabatlarini o'rganishda muhim ilmiy-amaliy ahamiyatga ega.

Kalit so'zlar: Alisher Navoiy, komil inson, tasavvuf, e'tiqodiy, jamiyat, insonparvarlik, adolat.

Alisher Navoiy sharq adabiyotida ulkan va unutilmas o'rin olgan insondir. Uning bizga qoldirgan asarlari soni juda ham ko'p bo'lishiga qaramay yo'nalishi bo'yicha diniy falsafiy axloqiy ilmiy va tarixiy badiiy guruhiga bo'lish mumkin. So'z mulkining sultoni Alisher Navoiy axloqiy, ma'naviy fikriy kamolotga erishish mavzuda ko'p asarlar yaratgan. Bunda ulug' shoir har bir janrning talabi, tabiati va ifoda yo'li hamda usullarini hisobga olib qalam yuritgan. Musulmon Sharqi mumtoz adabiyotida Arbain yozish an'anasi Navoiygacha ham bo'lgan.

Arbain arabcha “أربع” ya'ni, “qirq” so'zidan olingan bo'lib, qirqta mashhur, sahih hadis mazmunini she'riy vaznda, aniqrog'i, bir ruboiyda ifodalash san'atini anglatgan. Bunday asarlar oddiy xalq vakillari hadislar mazmunini oson tushunishi va xotirasida

uzoq saqlab qolishi uchun xizmat qilgan¹.

Arba'in janri hadis ilmi tarixida o'ziga xos an'ana bo'lib, Payg'ambar ﷺ dan rivoyat qilingan: ***"Kim mening ummatim uchun din masalalaridan qirq hadisni yodlab bersa..."*** mazmunidagi rivoyat ushbu janrning shakllanishiga turtki bo'lgan². Shu bois, arba'in asarlari ilmiy jihatdan ixcham, lekin mazmunan fundamental ahamiyatga ega manba sifatida qaraladi.

Alisher Navoiy qalamiga mansub "Arbain" ham Jomiyning "Arbain" asari kabi o'sha 1481-yilning o'zida yozib tugatilgan. Asar yozilishiga ayrim ulamolarning "Yetarli bilimga ega kishilar hadislarning ma'nolarini naql qilishlari mumkin" degan fikrlariga asoslangan ishdir. Navoiy ijodiga nazar tashlasak, u faqatgina o'zbek tili imkoniyatlari bilan chegaralanib qolmagan, balki boshqa tillardan ham unumli foydalangan. Ruboiylar sarasiga to'rt devon tuzilgan bo'lib, "Hazoyin al-maoniy" (ma'nolar hazinasi) nomli asari kiradi. Bu devonlarida muhabbat insoniylik vatan, axloq, ilm adolat va kamtarlik mavzulari yoritilgan.

Diniy asarlar sarasiga esa "Arbain" (qirq hadis) she'riy tarjimasi "Munojot" kabi asarlari kiradi. Bu asarlar bilan hazrat Navoiy jamiyatdagi insonlarni odob-axloqqa, yaxshilik qilib yomonlikdan qaytarishga buyurilgan hadislarni jamlaydi. Insonlarda salbiy hisoblangan illatlarni ham yo'qotishga targ'ib qiladi. Misol tariqasida "Arbain" asarida kelgan bir hadisni keltirish mumkin:

لا يؤمن أحدكم حتى يحب لأخيه يحب لنفسه

Payg'ambar aliyhissalom aytadilar. Sizlardan biringiz mo'min bo'lmaydi, yaxshi ko'rgan narsasini birodariga ham yaxshi ko'rmaguncha"³ Bu hadisda mo'min bo'lmaydi degani, ya'ni komil mo'minlik darajasiga yetmaydi ma'nosidadir. O'zi yaxshi ko'rganini

¹ Alisher Navoiy. Favoyid ul-kibar. – To'la asarlar to'plami, 10 jildlik, 4-jild. – Toshkent: G'afur G'ulom nomidagi NMIU, 2011. – B. 48.

² Suyutiy. Tadribur Rovi. – Qohira. Bayrut, 2004. – B. 73.

³ Imom an-Navaviy. Al-Arba'in an-Navaviyya. – Qohira. Bayrut, 2004. – B. 53.

boshqaga ham ravo koʻrmasa degan jumladan shu ma'no chiqadiki, bu ibora islomdagi eng oliy axloqiy mezonlardan biridir. Agar inson oʻzi uchun sogʻlik tinchlik mol-ilm farovonlikni istasa- boshqalar uchun ham aynan shuni xohlashi moʻminlik belgisi hisoblanadi. U nafaqat moddiy narsalarda balki, ruhiy maʼnaviy va diniy fazilatlarida ham qoʻllaniladi. Tasavvuf ahli esa bu hadisni ixlos va qalb pokligi mezoni deb taʼrif berishadi. Yaʼni insonning Allohga boʻlgan muhabbatini chinakam boʻlishi uchun, u boshqalar uchun ham xuddi oʻzi uchun istagandek ezgulikka intilishi kerak deganidir. Hazrat Navoiy esa bu hadisni insonlar zehniga tushunarli tarzida shunday taʼriflaydi:

Moʻmin ermastur ulki, iymondin

Roʻzgʻorida yuz safo koʻrgay,

Toki, qardoshigʻi ravo koʻrmas,

Nekim, oʻz nafsiga ravo koʻrgay⁴.

Fuzuliy

Moʻmin oʻlmaz kishi haqiqat ila,

Dudmayincha tariqi tarki havo.

Har ne oʻz nafsina ravo koʻrsa,

Yoru gardasha gʻurmayincha ravo⁵.

Moʻmin kishi haq yoʻlida chin boʻlmaguncha, havo nafs (istak va mayl) yoʻlini tark etmaguncha, haqiqatni topolmaydi, komil boʻlolmaydi. Kimki oʻz nafsiga bir narsani joiz (ravo) deb bilsa, u narsani birodariga ham ravo koʻrmaguncha, haqiqiy moʻminlik

⁴ Alisher Navoiy. Favoyid ul-kibar. – Toʻla asarlar toʻplami, 10 jildlik, 4-jild. – Toshkent: Gʻafur Gʻulom nomidagi NMIU, 2011. – B. 65.

⁵ Navoiy, A. Arbaʼin (Qirq hadis). – Toshkent: Gʻofur Gʻulom nashriyoti, 1991. – B. 90.

darajasiga yetmaydi. Fuzuliy bu baytda komil mo‘minning mezonini ko‘rsatadi. Uning fikricha, mo‘min faqat ibodat bilan emas, nafsini poklab, havoni (nafs istagini) tark etish bilan mukammal bo‘ladi. Bu asardagi ko‘p hadislar jamiyatdagi inson kamolotiga yetkazish hususida keladi.

Aziziddin Nasafiy komil insonga ta’rif berib yozadi: Bilgilki, Komil inson deb shariat va tariqat va haqiqatda yetuk bo‘lgan odamga aytadilar va agar bu iborani tushunmasang, boshqa ibora bilan aytayin: bilgilki, komil inson shunday insondirkim, unda quyidagi uch narsa kamolga yetgan bo‘lsin: yaxshi fe‘l, yaxshi axloq va ma’orif. Bu sifatlar bilan ziynatlangan odam yolg‘on, riyo va badkirdorlikdan chekinadi, hamma vaqt ezgu niyat bilan ezgu ishlarga tayyor turadi. Aziziddin Nasafiy yaxshi axloq haqidagi Uning fikricha, tariqat yo‘liga kirgan soliklar vazifa maqsadi ushbu uch fazilatni egallashidir. Kimki ozida shu sifatlarni kamol toptirsa, u kamolga erishadi. Nasafiyning mazkur ta’rifidan ikkita xulosa kelib chiqadi. Biri shuki, olim nazarida komil inson hayotdan taqari bo‘lgan allaqanday mavhum zot emas, balki real odamdir. Yaxshi sifatlarni egallab borgan odam shunday martabaga ko‘tarila oladi. Ikkinchi xulosa shuki, Nasafiyga ko‘ra, komil inson martabasi tariqat va riyozat yo‘li bilan qolga kiradigan yuksak martabadir.

Komil inson haqida yuqorida bayon etilgan fikrlarni o‘zaro tahlil qilinsa, quydagi xulosalar kelib chiqadi: Komil inson - insonlarning eng mukammali, eng oqili eng donosi. Navoiy uchun komillik – bu insonning Allohga yaqinlashish yo‘lida o‘zini tarbiyalashi, boshqalarga foyda keltirishi va jamiyatda ezgulik urig‘ini sochishdir. Alisher Navoiy komil inson haqida o‘z asarlarida juda chuqur va muhim fikrlar bildirgan. Uning g‘oyalarida insonparvarlik va komil inson tushunchalari bir-biri bilan chambarchas bog‘liq. Navoiy “komil inson”ni nafaqat axloqiy, balki ruhiy, intellektual va ma’naviy jihatdan ham mukammal bo‘lishi kerak deb hisoblagan. Uning asarlarida insonparvarlik, adolat, mehr-shafqat va yuksak axloqiy qadriyatlar katta o‘rin tutadi. Alisher Navoiy komil insonni nafaqat tashqi ko‘rinishidan, balki ichki olami, axloqiy fazilatlari orqali belgilaydi.

Navoiy komil insonni boshqalarga nisbatan mehr-muhabbat, g'amxo'rlik va qo'llab-quvvatlashni qadrllovchi shaxs sifatida tasvirlaydi. Uning asarlarida insonning boshqalarga yordam berishi, ular bilan mehr-oqibatli bo'lishi va ijtimoiy mas'uliyatni his etishi zaruriy sifat sifatida ta'kidlanadi⁶. Insonparvarlik g'oyasi bu yerda boshqalarga nisbatan hurmat, sabr-toqat va yordam qo'lini cho'zish sifatida ifodalanadi. Navoiy fikricha, komil inson, nafaqat o'zining axloqiy fazilatlarini rivojlantiradi, balki jamiyatda boshqalarni ham o'qitish, tarbiyalash va yaxshilik yo'lida yurgizishga intiladi.

Xulosa qilib aytganda, Navoiyning butun ijodi odob-axloq va komil inson masalalariga bag'ishlangan. Bunga adibning "Arbain" "Hazoyin al-ma'oniyy" "Mahbub ul-qulub", "Xamsa" va ayrim to'rtliklari orqali guvoh bo'lishimiz mumkin. Hazrat Navoiyning fardlari esa komil axloq sifatlarini yoritib bergan durdonalardir. Navoiy butun insoniyatni yaxshilik qilishga, kuchli mehnat qilib nafsini mag'lub etishga chorlaydi. Xullas, bir jumla bilan aytganda, Alisher Navoiyning butun ijodi insoniyatni nafsini yengib, komillik sari intilishga qaratilgan. Bu durdonalardan bahramand bo'lgan har qanday kishida yuksak axloq shakllanadi. Ana o'shanda har birimizning hayotimiz farovon, yurtimiz tinch, odamlar esa doimo baxtli yashaydilar. Chunki qanoatli, iymonli, diyonatli bo'lgan kimsalardan hech qachon yomonlik chiqmaydi. Ular ulug' bobomiz Navoiy kabi komil axloqi sabab bir necha asrlar davomida barhayot yashaydi.

FOYDALANGAN ADABIYOTLAR RO'YXATI

1. Alisher Navoiy. Xazoyin ul-maoniyy. Favoyid ul-kibar. – IV devon. Nashrga tayyorlovchi O. Davlatov. – Toshkent: Tamaddun, 2011.
2. Alisher Navoiy. Favoyid ul-kibar. – To'la asarlar to'plami, 10 jildlik, 4-jild. – Toshkent: G'afur G'ulom nomidagi NMIU, 2011.

⁶ Alisher Navoiy. «Nasoyim ul-muhabbat» (mukammal asarlar to'plami, 17-tom). – T.: Fan, 2001. – B. 250.

3. Navoiy, A. Arba'in (Qirq hadis). – Toshkent: G'ofur g'ulom nashriyoti, 1991.
4. Alisher Navoiy. «Nasoyim ul-muhabbat» (mukammal asarlar to'plami, 17-tom). – T.: Fan, 2001. – 317. b.
5. Suyutiy. Tadribur Raviy. – Qohira: Bayrut, 2004. – 525. B.